



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ALISHER NAVOIY DAVRIDA OMMAVIY NUTQLAR VA ULARNING RIVOJI

Abdusamatov Farruxbek Muhammadjonovich

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-mail: farruxbekabdusamatov95@gmail.com

Tel: 939410096

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher navoiy davrida ommaviy nutqning tarkib topishi, uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni bilan birgalikda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xv asr Temuriylar zamonidagi nutq madaniyati, ritorika san'ati va so'z ta'sirining kuchi nuqtai nazaridan yoritilib,, Navoiy ijodi orqali ommaviy nutqning diskursiv va pragmatic xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada, Navoiyning nutq madaniyati strategiyalari, ta'sir o'tkazish, axloqiy yo'mnaltirish, ishontirish va estetik ifoda vositalari haqida aytib o'tiladi. Maqolada tarixiy-madaniy yondashuv va pragmatic metodlar yordamida ommaviy nutqning rivojlanish omillari aniqlanadi va uning bugungi notqlik va kommunikativ madaniyatga ta'siri baholanadi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, notqlik san'ati, voiz, voizlik, qasidaxonlar, nadimlar, qissago'ylar, maktub yozish, nutq ododi va axloqi.*

Ulug' mutafakkir, shoir, davlat arbobi, so'z mulking sultoni, Hazrat Alisher Navoiy ham so'z va nutq so'zlash odoblari bilan sermahsul ishlar olib borgan. Navoiy davrida nutq so'zlashning darajasi ancha ko'tarilgan. Uning nutq so'zlash, nutq madaniyati va odobi to'g'risidagi fikr-mulohazalari "Mahbub ul-qulub" asarining bir necha boblarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, Navoiy yozadi: "Insonning odob-axloqi qiymatini belgilaydigan omillardan biri uning so'zi, nutqidir. Befoyda so'zni aytma va foydali so'zni ko'p eshiturdan qaytma"⁷⁸. Navoiy "Mahbub-ul qulub" kitobining 24-bobini voizlikka bag'ishlagan. Bu asarda o'sha davrning Mavlono Irshod, Voiz Koshifiy, Xotam Asom, Muin Voiz, Muayyad Mehnagi, Mavlono Riyoziy kabi o'nlab voizlarning nutq so'zlash mahoratlari haqida yoritilgan⁷⁹. O'sha davrda nutq so'zlash san'ati va shunga yaqin sohalar bilan shug'ullanganlar "nadimlar, qasidaxonlar, qissago'ylar, qiroatxonlar, voizlar, maddohlar, masalgo'ylar, muammogo'ylar, badihago'ylar" deb atalgan⁸⁰. Voizlik san'ati asosan uch ko'rinishga bo'lingan: dabirlik, xatiblik va muzakkirlik. Dabirlik – bu davlat maqomidagi yozishmalarni qiroat bilan o'qish bo'lsa, xatiblik xutba o'qish va muzakkirlik esa juma kunlar, hayit va boshqa bayramlardagi ommaga qaratilgan nutqlardan tashkil topgan. Voizlik san'ati va'z aytuvchilar va tinglovchilarning ijtimoiy-siyosiy lavozimlariga qarab ham uchga ajratilgan: sultoniyot, jihodiy va g'aribona. Sultoniyot – bu yuqori tabaqa a'zolari uchun

⁷⁸ Navoiy, A. "Mahbub ul-qulub". T.: "Fan". 1987. 82 b.

⁷⁹ Inomxo'jayev, S. Notqlik san'ati asoslari. – T.: O'qituvchi, 1972, 110-b

⁸⁰ O'sha asar. 111-b



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ommaviy nutlar bo’lsa, jihodiyya janggoh ishtirokchilari uchun aytilgan nutqlardir va g’aribona nutqlar oddiy fuqarolarga mo’ljallangan nutqlar hisoblangan. Har bir nutqning aytilishi, o’qilishi va nutq so’zlanishi shartlari turli xil bo’lgan⁸¹.

Alisher Navoiyning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo’lishi kerak:

1. Voizning so’zlari ta’sirchan va foydali bo’lmog’i lozim: “Voiz kerakki, Qolalloh so’z aytsa”.

2. Nutq tinglovchi uchun yangilik bilimlar va o’zgarishlar xabarini beruvchi bo’lishi lozim: “Va’z bir kurshid va ogoh kishidur va aning nasixatin qabul etgan maqbul kishidur”.

3. Nutq so’zlovchining o’zi biror sohani egallagan bo’lishi va undan so’ng va’z orqali kishilarga ta’sir qilishi kerak. “Avval bir yo’lni bormoq kerak, Andin so’ng elni boshqarmoq kerak”.

4. Nutq qiluvchi inson bilimdon va olim bo’lib, har narsadan xabardor kishidir. “Voizkim, bo’lgoy olim va muttaksh – aning nasixatidin chiqqan shakiy”.

5. Nutq so’zlovchi kishining so’zi bilan ishi bir bo’lmog’i kerak. Aks holda, nutqning ta’siri bo’lmaydi. “Ulki buyurib, o’zi qilmag’ay hech kimga foyda va asar so’zi qilmag’ay”⁸².

Alisher Navoiy nutq so’zlash borasida aniq-tiniqlik va qisqalikni yoqtiradi. Bu jihatdan esa “Mahbub ul-qulub” asaridagi 60-tanbehi o’rinlidir: “Chin so’z mo’tabar, Yaxshi so’z muxtasar. Kimning miyasida illat bo’lsa, so’zida mantiq bo’lmaydi. Ko’p deguvchi mumil, muqarrar deguvchi la’ya qil”. Ya’ni, deyilmoqchiki, chin so’z e’tiborli, e’tirofqa sazovordir, yaxshi so’z esa qisqa bo’ladi. Ko’z so’zlovchi, mahmadona odam zeriktiradi, qayta-qayta gapiradigan insonni aqldan ozgan deb tavsiflaydi⁸³. Navoiy uchun so’zning hashamdorligidan ko’ra uning rostligini sharaflaydi. O’sha zamondagi mashhur notiqlardan biri hisoblangan Mavlono Riyoziyning nutq so’zlash faoliyatida nutqni harakatlar bilan, mimika bilan qo’shib olib borish ustuvor texnikalardan bo’lgan. Navoiy ushbu notiq haqida yozadi: “Va’z aytib, minbarda o’z ash’orin o’qub, yig’lab vajdi hol qilur”⁸⁴. Navoiy ijodida nutq so’zlash va suhbat odobi qoidalari maromiga yetkazib ifoda qilingan. “Fikring xalq uchun foydali va tushunarli bo’lsin desang, sodda tilda gapir”, deydi.

Navoiy tuturiqsiz gapirib, kishilarning g’ashiga tegadiganlarni aqli past, nosog’lom kishilar, deb baho beradi. “Ulkim, dimog’ida habt – so’zida yo’q pabt”. Ya’ni, kimning dimog’ida illat bo’lsa, so’zida bog’lanish yo’qdir, deb ta’kidlaydi. “Dimog’i sahih – guftori fasih” ya’ni, miya sog’lom bo’lsa, gap-so’zi ham yoqimli va xatosiz bo’lur. “So’zi hisobsiz, o’zi ixtisobsiz” yoki “So’zida parishonlik, o’zida pushaymonlik”⁸⁵, deya utqtiradi buyuk mutafakkir olim.

Navoiyning nutq madaniyati, nutq san’ati, til va nutq odobi to’g’risida bayon qilgan

⁸¹ Ortiqov, A. Oliy maktab pedagogining nutq madaniyati. – T.: IIV Akademiyasi. 2001. 6-bet.

⁸² Navoiy, A. “Mahbub ul-qulub”. T.: “Fan” 1987. 74 b.

⁸³ O’sha asar. 75 b.

⁸⁴ O’sha manba. 84 b.

⁸⁵ Navoiy, A. “Mahbub ul-qulub”. T.: “Fan”. 1987. 78 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati bo‘yicha boy hamda nodir merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

Maktub yozish madaniyati – yozma madaniyatning bebaho bo‘lagi hisoblanadi. Maktub yozish birinchidan fikrlashga, yaxshi yomonni tanishga, atrofga razm solib qarashga, o‘z mustaqil fikrini shakllantirishga va baho berishga o‘rgatadi. Maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Buyuklarning bir-birlari bilan bo‘lgan yozma nutqlariga, yozishmalariga nazar tashlasak, ularda ma‘no-mazmun va mohiyat bo‘yicha yuqori darajadagi insonparvarlik, samimiyat, vatanparvarlik, bag‘rikenglik va sadoqat tuyg‘ularining go‘zal namunasini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, Hazrat Navoiyning “Munshaot” deb nomlangan asariga to‘plangan maktublar o‘zining ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy va ijtimoiy-siyosiy tomondan yuksak ahamiyatga ega sanaladi. Navoiy maktublarini ko‘proq saltanat valiahdlariga yozgan va o‘z xatlarida o‘sha zamon nuqtai nazaridan bebosh shahzodalarni tarbiyalashga, tartib, shafqat, adolat va hikmat bilan ish olib borishga chorlab, insoniy fazilatlarini unutmaslikka chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inomxo‘jayev, S. Notiqlik san‘ati asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1972, 110-b
2. Navoiy, A. “Mahbub ul-qulub”. T.: “Fan”. 1987. 82 b.
3. Ortiqov, A. Oliy maktab pedagogining nutq madaniyati. – T.: IIV Akademiyasi. 2001. 6-bet.
4. Aripova, A. 2024. Notiqlik – ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida. T., 2024.

